

## BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA BADIY MATNNI TAHLIL QILISH METODIKASI

**B. Qurbonova**

FarDu dotsenti

**O. G'ulomova**

FarDu 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'qish darslarida badiiy matnlar tahlilini amalga oshirishning dolzarbligi yoritib berilgan. Shuningdek, badiiy adabiyot tahlili jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, innovatsiya, integratsiya, badiiy asar, badiiy muloqot, mustaqil fikrlash

Badiiy adabiyot va san'at badiiy asar shaklida yashaydi, shunga ko'ra, badiiy asar adabiyot va san'atning yashash shakli hisoblanadi. Avvalo "badiiy asar" degan birikma keng va tor ma'noda qo'llanilishini e'tiborga olish zarur. Keng ma'noda badiiy asar deyilganda san'atga: (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr va hokazolar) aloqador, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli bo'lmish yangi mavjudlikni tushunamiz. Bu ma'noda musiqa asari ham, haykal yoki rangtasvir ham, film yoki spektakl ham – bari badiiy asar sanaladi, ularning bariga nisbatan badiiy asar atamasini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Biz mazkur birikmani tor ma'noda qo'llab, bunda badiiy adabiyotga mansub bo'lgan har qanday asarni tushunamiz. Ya'ni badiiy asar deganda biz "adabiy badiiy asarni" nazarda tutamiz. Badiiy asar badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi hisoblanadi. Ma'lumki muloqot paytidagian til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topgan matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Yozuvchi ijod vaqtida hayolidagi, tasavvuridagi o'quvchi bilan o'zaro muloqotda bo'ladi. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi

Badiiy ijodning yana bir muhim unsure-tasavvur. San'atkorning ijodiy tasavvuri xotirada mavjud fakt va taassurotlardan keraklilarini uyg'otib, ularni "jonlantirish", muayyan tartibga solingan manzara holida ko'rish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ayniqsa, badiiy asar namunalarini juda sevib o'qiydilar. Badiiy asarni o'rganish hayotni obrazlar orqali anglashga yordam beradi, bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi. Badiiy asar bolalarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ularning axloqiy va estetik tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

She'r, hikoya, masal, ertak, topishmoq, qo'shiq kabi turli janrlardagi badiiy asarlarni o'qish o'quvchilarda adabiyot va ona tiliga muhabbatni o'stiradi va ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi. "Badiiy asarni tushunish yetmaydi, uni his etmoq ham kerak,"- degan edi K.D.Ushinskiy "Adabiy asardagi obrazlar xarakterini, shu asarning ruhiyatini tushunishni va his qilishni istagan har bir kitobxon uning to'liq mazmuni bilan tanishib chiqishi kerak bo'ladi. Shuningdek o'quvchilar, badiiy asarni tushunishi uchun uni tahlil ham qila olishi muhim hisoblanadi. "

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matn ustida ishlashda quyidagi malakalarga ega bo'lmog'i lozim:

- o'qilgan asar namunasidagi voqeaning izchillik bilan rivojlanib borishini kuzatib borishi kerak;
- matn qismlarining mazmunan bir-biriga bog'lanishni belgilay olishi;
- o'qilgan matn mazmuniga mos reja tuza olishi;
- kitobdan o'qilgan matnda ishtirok etuvchilar haqida so'zlash uchun material tanlay olishi;
- matn qahramonlarining xatti-harakatiga baho bera olish;
- o'qilgan matn qahramonlari haqida hikoya tuza olish;
- matnning mazmunini mustaqil tuzilgan reja asosida qisqacha so'zlashi;
- matnda berilgan asosiy fikrni o'zi mustaqil ravishda ajratishi;
- matnda berilgan so'zlar ma'nosidagi farqni ajrata olishi.

O'qish darslarida badiiy matn tahlilini amalga oshirishga intergratsion yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlashga o'rgatishning omili hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-488 b.
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar).- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 160 b.
3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.-351 b.
4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta’lim, 1998, 6-son, 12-18-betlar.
5. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi, - Toshkent, 2010.-146 b.
6. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi (Boshlangich ta’lim).- Toshkent, 2017. - 249 b.